

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**KORPORATIV BOSHQARUV FAKULTETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 658:01:330.3**

Allaberganova Shaxruza Ulug'bek qizi

**Mavzu: Sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishni  
boshqarish**

**70411201 - "Menejment" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: PhD Djurabaev O.D.**

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

13 -sonli bayonnoma "19" may 2023y.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ Prof. Yo'ldoshev N.Q.

imzo

sana

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ PhD, Djurabayev O.D.

imzo

sana

Talaba: \_\_\_\_\_ Allaberganova Sh.U.

imzo

sana

## ANNOTASIYA

Raqamlashtirilgan iqtisodiyotda O'zbekiston hukumati investitsion jozibadorlikni rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda. Chunki investitsiyalarni jalb etishni amalga oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Iqtisodiyotimizda tub o'zgarishlarga ichki sarmoyani jalb qilish, xorijiy sarmoyani jalb etish orqali erishish mumkin.

Shu munosabat bilan ushbu magistrlik dissertatsiyada biz asosan investitsiyalar va investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishni nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, real va moliyaviy investitsiyalar bo'yicha investitsiya qarorlarini qabul qilishning uslubiy asoslari, umuman sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishni takomillashtirishni ko'rib chiqamiz.

Shuningdek, ushbu tadqiqotda investitsiyalarni jalb etish va ularni joriy etish asosida korxonalar boshqaruvini takomillashtirish ahamiyati yoritilgan. Sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etish va investitsiya jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish, investitsiya risklari va ularni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotda, shuningdek, sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan muhim qadamlar qayd etilgan va ushbu mavzu bo'yicha qonunchiligi atroflicha muhokama qilingan.

*Tayanch iboralar: investitsiya, investitsiyani jalb qilish, iqtisodiyot, jozibadorlik, sanoat korxonasi, rivojlanish, boshqaruv.*

## ANNOTATION

In the digitized economy, the government of Uzbekistan is constantly paying attention to the development of investment attractiveness. Because investment attraction is an important factor in ensuring economic growth and development of production. Fundamental changes in our economy can be achieved by attracting domestic investment and attracting foreign investment.

In this regard, in this master's thesis, we mainly consider the theoretical, methodological and practical foundations of investment and investment attraction management, the methodological basis of making investment decisions on real and financial investments, and improving the management of investment attraction to industrial enterprises in general.

Also, this study highlights the importance of improving the management of enterprises based on the attraction of investments and their introduction. Special attention is paid to attracting investments to industrial enterprises and financial support of the investment process, financing of innovative activities, investment risks and their management.

The study also notes the important steps taken to manage the attraction of investments in industrial enterprises and discusses the legislation on this topic in detail.

***Key words:** investment, attracting investment, economy, attractiveness, industrial enterprise, development, management.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi..	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqotningob'ekti va predmeti.....	11
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
2.1. "Sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish" mavzusidagi ilmiy-nazariy qarashlarga sharhi.....	13
2.2. Tadqiqot bilan boliq maxalliy normativ qonun - qoidalar sharhi.....	19
<b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>26</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	26
3.2. Ma'lumot yig'ish jarayoni.....	27
3.3. Qo'llaniladigan tahlil usullari	27
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>44</b>
4.1. "SAFF TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining faoliyati tavsifi.....	44
4.2. Korxonaning iqtisodiy - moliyaviy taxlili.....	48
4.3. "SAFF TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish xolati.....	56
<b>V BOB. XULOSA.....</b>	<b>63</b>
5.1. Tadqiqotdan olingan xulosalar.....	63
5.2. Tadqiqotning asosiy takliflari va tavsiyalari.....	66
5.3. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	70
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>72</b>

## I BOB.KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish masalalari har qanday korxonaga uchun potentsial investitsiya ob'ektlarini xavf va investitsiyalarning daromadlilik nuqtai nazaridan baholashni hisobga olgan holda dolzarb bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Sanoat sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi nafaqat korxonalarining, balki hududlar va butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini belgilovchi omillardan biridir, chunki ko'plab sanoat korxonalari shahar tashkil etadi. Cheklangan moliyaviy resurslarning shartlari va investitsiyalarni jalb qilish uchun investitsiya resurslari bozorida raqobatbardosh mavqeni ta'minlash uchun korxonaning yetarli darajada investitsiya jozibadorligi zarurligini belgilaydi.

Bu noto'g'ri qaror qabul qilish xavfini minimallashtirish bilan birga korxonalarining joriy investitsion jozibadorlik darajasini tahliliy aniq baholashni talab qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqotida sanoat korxonaning investitsiya potentsialining guruh ko'rsatkichlari va uning investitsiya risklari omillari asosida integral ko'rsatkich bo'yicha bunday baholashni shakllantirishni boshqarish jarayonini aks ettiruvchi talablarni shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"<sup>1</sup> dolzarb vazifalar ekanligi belgilab berildi.

Investitsion muammolarni o'rganish har doim iqtisod fanining markazida bo'lib kelgan - investitsiyalar iqtisodiy faoliyatning eng chuqur asoslariga ta'sir qiladi, umuman iqtisodiy o'sish jarayonini belgilaydi - ularning yo'qligi yoki yetarli emasligi iqtisodiy turg'unlikning asosiy sababi bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони.01.02.2022